FARG‘ONA MUZEYINING ASOSCHISI

Karimov Islomjon Ilhomjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

karimovislomjon95@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolaa Farg’ona vosiysidagi eng keksa muzeyning tashkil etilishida alohida tashabbus ko’rsatgan Yevgeniy Lvovich Shestoperov faoliyati va muzey tashkil etishdagi xizmatlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Y. L. Shestoperov, Jitomir, muzey, G’ulja, preparatory, artillerist, tabiatshunos, zoolog, N. G. Garbunova.

Abstract: This article highlights the activities of Yevgeniy Lvovich Shestoperov, who showed special initiative in the establishment of the oldest museum in the Fergana Valley, and his services in organizing the museum.

Keywords: Y. L. Shestoperov, Jitomir, museum, Kuldja, preparatory, artillerist, naturalist, zoologist, N. G. Gorbunova.

Turkistonda muzeylarning tashkil etilishida bir qator shaxslarning alohida tashbbus ko’rsatgani diqqatga sazovor. Xususan, 1876-yilda Toshknet muzeyni tashkil qilinishida V.F. Oshanin, N. A. Mayev; Samarqand muzeyini tashkil qilinishida I.M. Mushketov, D.I. Evarniskiy; 1920-yilda Namangan muzeyini tashkil etilishida V.I. Ivanov, 1920-yilda Farg’ona muzeyni tashkil qilinishida esa Y. L. Shestoperovning xizmatlar katta.

1911-yilda faoliyati tugatilgan Farg‘ona viloyat xalq muzeyini 1919-yildan qayta tiklash masalasi ko‘tarila boshladi. Kadrlar bilan ta’minlash masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Chunki, 1899–1911-yillarda muzey qo‘mitasi tarkibidagi xodimlar muzey faoliyatidan ancha yiroq shaxslar edi, xususan, qo‘mita tarkibida harbiylar, shahar maktabi inspektori, sud maslahatchisi, shifokorlar, injener, o‘rmon xo‘jaligi vakillari,

sanoatchilar, me’mor singari kasb egalari mavjud edi[1]. Shuning uchun yangi tashkil etilganlarga oldingi muzey tarkibini jalb qilish imkoni bo‘lmagan. 1920-yilda yangidan tashkil etilgan muzeyga ma’lumotiga ko‘ra, artillerist[2], havaskor tabiatshunos va zoolog Y. L. Shestoperov direktor etib tayinlanadi. Y. L. Shestoperov 1885-yilda Jitomirda (Ukraina) tug’ilgan. Dastlab Petropviskiy kadet korpusida, so’ngra Mixaylov artilleriya bilim yurtini tamomlaydi. Faoliyatini Turkistonda harbiy ma’muriy xizmatdan boshlaydi. Turli hududlarda xizmat safarida bo’ladi. Xususan, 1910-yilda Sarmarqand, 1911-yilda Toshkentga o’tkazilib, u yerda sharq tillari kursini tamomlab, Xitoyning G’ulja shahriga yuboriladi. 1913-yilda xizmatdan voz kechib, Toshkentdagi O’simliklarni himoya qilish bo’limiga entomolog bo’lib ishga kirdi va shu yili O’simliklarni himoya qilish stansiyasi entomologi M. Sizov tavsiyasiga ko’ra, Imperiya Fanlar Akademiyasining muxbir a’zoligiga saylandi. Xizmat safarlari mobaynida turli xildagi kolleksiyalar to’plagan. U o’zining dastlabki kolleksiylarini Samarqanddagi xizmati mobaynida yig’adi. G’ulja shahridan esa mahalliy hasharotlar kolleksiyasini to’playdi. O’simliklarni himoya qilish stansiyasi tomonidan unga Petrograd, Sankt-Peterburg, Leningrad xizmat safarlarida bo’lgan vaqtida yangi kolleksiyalar to’plash uchun asbob-uskunalar yuboriladi. Birinchi jahon urushining boshlanishi uni yana armiyaga qaytishga majbur qildi. Lekin ko’zida nuqsoni borligi uchun uni frontga emas, balki hududiy: Samarqand, Farg’ona va Jarkentga mudofaa bo’limlariga jalb qilingan. U yerdan 1917-yil iyunda Toshkentga qaytib keladi. 1920-1922-yillarda Farg’ona shahar ilmiy muzeyiga mudirlik qiladi[3]. Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida uning turmush o‘rtog‘i Shestoperovaning XX asrning 50-yillarida Farg’ona muzeyi xodimi N. G. Garbunovaga yozgan xati saqlanadi[4]. Unda Y. L. Shestoperovning

[1] Гулиянц Л. И. Фарғона вилоят ўлкашунослик музейи тарихидан // Фарғона ўлкашунослиги. (Фарғона ўлкашунослик музейининг 100 йиллигига бағишланган илмий ишлар тўплами). – Фарғона: Фарғона, 1996. – Б. 10.
[2] Artillerist – artilleriya qurollari (to‘plar, gaubitsalar, minomyotlar) bilan ishlovchi, ularni boshqaruvchi va jangovar vazifalarni bajaruvchi harbiy xizmatchi, ya’ni to‘pchi. Bu haqda aarang: https://ru.wikipedia.org/wiki/Артиллерист (Murojaat qilingan sana: 02. 12. 2025).
[3] https://ru.wikipedia.org/wiki/Шестопёров,_Евгений_Львович (Murojaat qilingan sana: 10. 05. 2025).
[4] Muzey fondlari va arxivi bilan tanishish asnosida mazkur xat bilan to’liq tanishib chiqildi. Bu haqda qarang: Farg’ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi arxivi. 194-sonli hujjat, 32–34-varaqlar

muzeyni tashkil etilishidagi faoliyati va qiyinchiliklari yoritilgan. Unga ko‘ra, Shestoperova va Farg‘ona viloyati xalq ta’limi bo‘limi xodimi Nina Konstantinova Yakovlevalaning bir biriga yaqinligi ortidan turmush o‘rtog‘i orqali Y. L. Shestoperovga Farg‘ona viloyatida muzey tashkil qilish taklifi berildi, u taklifni qabul qilib, muzeyni eski to‘plamlari bilan yaqindan tanishib chiqdi[5]. Muzey xodimlari bilan birgalikda Farg’ona hududu bo’ylab ekspeditsiylar tashkil etib, muzey fondi yangi kollelsiyalar bilan to’ldirildi.

Yangi muzeyga Farg‘ona viloyati ijroiya qo‘mitasi tomonidan shtat jadvali tasdiqlandi. Unga ko‘ra, tarkib muzey mudiri, uch nafar ilmiy xodim, preparator [6] va qorovuldan iborat bo‘lishi belgilandi[7]. Birinchi jahon urushida asirga tushgan va Turkistonga jo‘natilgan asirlarni Farg‘ona vodiysida saqlanayotganlaridan bir nafari ham preparator hamda ilmiy xodim, muzey qorovulligiga esa ov bilan shug‘ullanadigan mahalliy millat vakili qabul qilindi[8]. Shu bilan muzey uchun dastlabki xodimlar shakllantirildi. 1922-yilda Y. L. Shestoperov bezgak kasalligini yuqtirib oladi va Ashxobodga ketishga majbur bo‘ladi. Farg’ona shahar ma’muriyati Y. L. Shestoperovga agarda ikki yil mobaynida Farg’ona qaytib kelsa muzey mudirligini yana unga topshirish shartiga rozi bo’ladi. Bu muddatda esa muzeyga Emiliy Georgnevich Balkanskiy vaqtinchalik mudir etib tayinlandi.

1920-yilda Farg‘ona viloyati ijroiya qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shtatlar jadvali 1922-yilda o‘zgartirildi. Unga ko‘ra, shtatlar avval 4 kishiga, keyin esa 3 kishigacha qisqartirildi[9]. Turkistonda harbiy asirlarga ozodlik berilishi natijasida muzey ilmiy xodimi va preparatori ham muzeyni tark etgan. 1923-yilda shtatlar jadvaliga ko‘ra, muzeyda muzey mudiri, ilmiy xodim va qorovul faoliyat yuritishi belgilangan bo‘lsa-

[5] Farg’ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi arxivi. 194-sonli hujjat, 32-varaq
[6] Preparator – biologik materiallar va obyektlarni keyingi o'rganish yoki namoyish qilish uchun tayyorlaydigan, qayta ishlaydigan va saqlaydigan mutaxassis. Bu haqвa qarang: https://edwica.ru/professions/preparatoR–12295 (Murojaat qilingan sana: 09. 09. 2025)
[7] Farg’ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi arxivi. 194-sonli hujjat, 10-varaq
[8] Farg’ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi arxivi. 194-sonli hujjat, 33-varaq
[9] Farg’ona viloyat davlat arxivi. 1150-fond, 1-ro’yxat, 6-ish, 159-varaq

da[10] aslida 2 nafar – mudir va farrosh faoliyat olib bordi xolos. Buning asosiy sababi muzey xodimlarining oylik maoshlarining ozligi va aholini shaharning “Yangi” qismida ishlashga istagi yo‘qligi edi[11].

Y. L. Shestoperov Farg’onada Ashxabodda ketib u yerda mahalliy muzeyda ilmiy xodim, o’rta maktabda tabiatshunoslik fani o’qituvchisi, 1934-yildan ilmiy tekshirish zoologiya stansiyasida birinchi darajali ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritdi. 1937-yilda uning muallifligida “Turkmaniston SSR umurtqali hayvonlarini aniqlagichi. Qushlar” kitobi nashr etildi. Qatag’on siyosati natijasida bir guruh ziyolilar qatorida 1938-yilda qamoqqa olindi va 1940-yilda Ashxobod qamoqxonasida vafot etdi. 1956-yilda unga qo’yilgan ayblovlar olib tashlangan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Farg’ona viloyatida dastlabki Farg’ona shahar ilmiy muzeyini tashkil qilinishida va uning fondlarini boyitishda Y. L. Shestoperovning xizmatlari beqiyos. XX asrning 20-yillarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy hayot og’irligi, ocharchilik holatlariga qarmay, Y. L. Shestoperov tashabbusi natijasida Farg’ona viloyatida muzeyning madaniy muassasa sifatida mavqeyi mustahkamlandi.

[10] O’zR MA. R–394-fond, 1-ro’yxat, 68-ish, 14-varaq
[11] Farg’ona viloya0it tarixi va madaniyati davlat muzeyi arxivi. 194-sonli hujjat, 10-varaq